Tijorat banklarida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi .....	992
<i>Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich</i>	
Tadbirkorlik muhiti tahlili va uni davlat tomonidan tartibga solish shart-sharoitlari .....	997
<i>S. T. Toshaliyeva, A. M. Abduraxmonov</i>	
Учет поступления и списания с учета основных средств в бюджетных организациях .....	1002
<i>Абдуллаева Нилуфар Джавдат кизи</i>	
Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini takomillashtirish.....	1007
<i>Sadullayeva Asaxon Muzaffarovna</i>	
Davlat budgetining soliqsiz daromadlari shakllanishini takomillashtirish yo'llar.....	1010
<i>Oktamova Nargiza Narzulla qizi</i>	
Sog'liqni saqlash tizimini davlat tomonidan moliyalashtirishning zaruriyati.....	1014
<i>Meliyev Azimjon Murodullo o'g'li</i>	
Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishda ichki audit xizmatining zarurligi .....	1019
<i>Shaymatova Nargiza Ashurovna</i>	
Hududlarda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy asoslari.....	1024
<i>Tangriberdiyev Sulaymon Kamiljonovich</i>	
Tadbirkorlikni rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning nazariy va uslubiy tamoyillari .....	1030
<i>Farxodjon Inamov</i>	
Xitoy iqtisodiyotidagi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillar .....	1037
<i>Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li</i>	
Экономический механизм государственного регулирования транспортной системы.....	1043
<i>Саримсакова Малоҳат Ҳикматуллаевна</i>	
Kambag'allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta'minlashning muhim omili .....	1046
<i>Usmanov Baxodir Baxtiyorovich</i>	
Korxonalar faoliyatiga innovatsion marketingni joriy etish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.....	1052
<i>Fatilloyev Farrux Farhod o'g'li</i>	
Tog' turizmini rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	1056
<i>Mavlanov G'olibjon Muxammad o'g'li</i>	
Qashqadaryo viloyatida kambag'allik darajasini iqtibolda qisqartirish yo'nalishlari.....	1062
<i>Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li</i>	
O'zbekistonda iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirishning yo'nalishlari .....	1068
<i>Saidova Dildora Nurmatovna, Murodov Jahongir Husan o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li</i>	



# QASHQADARYO VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINI IQTIQBOLDA QISQARTIRISH YO'NALISHLARI

UDK 316.334.2

**Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li**

TMCI "Iqtisodiyot, huquq va boshqaruv" kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada Qashqadaryo viloyatida kambag'allik darajasini qisqartirishning ustuvor yo'nalishlari va kelgusi davr uchun prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, prognozlash davomida Qashqadaryo viloyatining 2004–2022-yillar mobaynida ishsizlik va kambag'allik darajalari va ko'rsatkichlari trend ma'lumotlari o'rganilgan hamda statistik vaqtlar qatori uslubi orqali polinomial regressiya usulida prognoz modeli hisoblab chiqilgan. Tadqiqot natijalariga asosan maqolada mintaqadagi kambag'allik darajasini yumshatish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kambag'allik, ishsizlik, kambag'allikni kamaytirish, ishsizlik darajasi, kam ta'minlanganlik.

**Abstract:** In the article, priority directions for reducing the level of poverty in Kashkadarya region and forecast indicators for the next period have been developed. Also, during the forecasting, trend data of unemployment and poverty levels and indicators of Kashkadarya region during 2004–2022 were studied, and a forecast model was calculated using the polynomial regression method using the statistical time series method. Based on the results of the research, the proposal and recommendations for alleviating the level of poverty in the region have been developed in the article.

**Key words:** poverty, unemployment, poverty reduction, unemployment rate, poverty.

**Аннотация:** В статье разработаны приоритетные направления снижения уровня бедности в Кашкадарьинской области и прогнозные показатели на ближайший период. Также в ходе прогнозирования были изучены данные о тенденциях уровня безработицы и бедности и показателей Кашкадарьинской области за 2004–2022 годы, а также рассчитана прогнозная модель методом полиномиальной регрессии с использованием метода статистических временных рядов. По результатам исследования в статье разработаны предложение и рекомендации по снижению уровня бедности в регионе.

**Ключевые слова:** бедность, безработица, сокращение бедности, уровень безработицы, бедность.

## KIRISH

Kambag'allik butun dunyo bo'ylab jamiyatlar oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, kambag'allikka qarshi kurash mintaqalarda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Uning jamiyatning turli jabhalariga, jumladan, ta'llim, sog'liqni saqlash, asosiy resurslardan foydalanish va yuqori harakatchanlikka ta'siri ushbu global muammoni hal qilishning dolzarbligi va muhimligini ta'kidlaydi. Kambag'allikka barham berishga ustuvor ahamiyat berish va inklyuzivlikni, resurslarni adolatlitiqsimlashni va muhim xizmatlardan foydalanishni rag'batlantiradigan keng qamrovli strategiyalarni amalga oshirish orqali mintaqalar kambag'allik siklini buzishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga yordam berishi va hamma uchun yanadaadolatli va farovon kelajak yaratishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni ijrosi yuzasidan 2022-yilning 20-aprel sanasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022–2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 201-son qarorida "Qashqadaryo viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning "o'sish nuqtalari"ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlanishish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022 yildagi "2022–2026-yillarda kompleks Qashqadaryo viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 201-soni qarori.



“yaxshilash” masalalariga alohida to’xtalib o’tilgan va kelgusidagi rejalar tizimli dasturlar asosida belgilab berilganligi mintaqalarda kambag’allikni qisqartirishning mamlakatning iqtisodiy o’sishida nechog’liq muhim ekanligini ko’rsatadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Dunyo miqyosida mintaqaviy kambag’allikni aniqlash va unga qarshi kurashish bo'yicha ilmiy taqdiqotlar olib borgan olimlardan E.Glezer, G.Jonson va R.Birdlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Xususan, Glezer o'zining “Kambag’allikni kamaytirishni isloh qilish: donishmandlar va davlatchilik saboqlari” nomli maqolasida mintaqaviy kambag’allik tushunchasi va uning oqibatlarini muhokama qiladi<sup>2</sup>. D. Jonson va M.Birdlar ham o'z tadqiqotlarida mintaqaviy kambag’allikning sabablari va oqibatlarini ko'rib chiqadi<sup>3</sup>. Shuningdek, hududiy kambag’allik darajasini proqnoz qilishda Martin Ravallionning qator ilmiy tadqiqotlari o'rganib chiqildi. Jumladan, M. Ravallionning “Qashshoqlikni taqqoslash: tushunchalar va usullar bo'yicha qo'llanma” (2001) asarida polinomial regressiya usulida proqnoz modeli orqali kambag’allikni o'lchash va tahlil qilishda foydalangan<sup>4</sup>. Shu nuqtayi nazardan, Qashqadaryo viloyatida kambag’allik darajasi istiqbollarini aniqlashda mazkur metod tanlangan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishimizning asosiy qismida hududdagi umumiyl iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlar muhokama qilinadi. Shuningdek, viloyatning 2004–2022-yillardagi kam ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichlarni xisobga olgan holda 2030-yillar proqnoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Statistika agentligi ma'lumotlariga asoslanib, proqnozlash metodologiyasi chiziqli regressiya usuli orqali hisoblandi. Chiziqli regressiya – bu qaram o'zgaruvchi (bu holda “y” o'zgaruvchisi bilan ifodalangan) va bir yoki bir nechta mustaqil o'zgaruvchi (bu holda “x” o'zgaruvchisi bilan ifodalangan) o'tasidagi munosabatlarni modellashtirish va tahlil qilish uchun ishlatiladigan statistik usul). Odatda proqnozlash uchun ishlatiladi<sup>5</sup>.

$$y = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \dots + \beta_n x_n$$

Bu yerda:

y - qaram o'zgaruvchi (proqnoz qilinadigan o'zgaruvchi)

$\beta_0$  - barcha mustaqil o'zgaruvchilar nolga teng bo'lganda y ning taxmin qilingan qiymatini ifodalovchi kesma.

$\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n$  - mustaqil o'zgaruvchilarning ( $x_1, x_2, \dots, x_n$ ) koeffitsiyentlari bo'lib, har bir mustaqil o'zgaruvchining birlik o'zgarishi uchun y ning o'zgarishini ifodalaydi.

Koeffitsiyentlarni baholash uchun odatda eng kichik kvadratlар usuli qo'llaniladi, bu erda kvadrat xatolar yig'indisi minimallashtiriladi. Koeffitsiyentlarni statistik dastur yordamida hisoblab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyo miqyosida nechta mamlakat bo'lsa, har bir mamlakat o'ziga xos xususiyatlari, turmush tarzi, mintaqati, urf-odatlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ega. Shunday ekan, har bir davlat o'z imkoniyatlari va iqtisodiy-siyosiy ahvoldidan kelib chiqib kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha o'z yondashuvlarini ishlab chiqadi yoki rivojlangan davlatlarning mos keladigan tajribalarini o'z siyosatiga muvofiqlashtirgan holda tadbiq etadi. Chunki qaysidir davlatning bu boradagi siyosati boshqa bir davlat siyosatiga to'g'ridan to'g'ri mos bo'lishi iqtisodiy siyosatnig noyob holatlaridan hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda mamlakatimiz ichki imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib kambag'allik va uni qisqartirish yo'llarini o'zida mujassamlashtirgan milliy modelni ishlab chiqish masalaning yana bir dolzarb jihatlaridan biridir. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida ham kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonlik darajasini oshirishda hududning ichki imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda viloyatdagi kambag'allikni kamaytirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish va amaldagi tizimni diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiq.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish natijasida (2020 yilga nisbatan): YAIM o'sish sur'atini 1,5 barobarga oshirish, aholi jon boshiga YAIMni 1,4 barobarga oshirish, kambag'allik che-

- 2 Glaeser, E. L. (2000). Reforming Poverty Alleviation: Lessons from Sages and Statecraft. Brookings Papers on Economic Activity, 2000(2), 217-274.
- 3 Johnson, D. G. (1987). Regional Problems and Policies in Latin America. World Bank Publications. 3. Bird, R. M. (1999). Fiscal decentralization and regional poverty. International Studies Program, Working Paper Series, Paper 99-07.
- 4 Ravallion, M. (2001). Poverty Comparisons: A Guide to Concepts and Methods. Living Standards Measurement Study Working Paper No. 88. The World Bank.
- 5 Montgomery, D.C., Jennings, C.L., & Kulahci, M. (2015). Introduction to Time Series Analysis and Forecasting. Wiley. Pages 198-206



garasini amaldagi 498 ming so'mdan 683,2 ming so'mgacha ko'tarishga (1,6 barobar), ishsizlik darajasini esa 2 barobarga kamaytirishga erishilishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, aholini qiyab kelayotgan mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan hamda amaliy tadbirlarni o'z ichiga olgan "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va Qashqadaryo viloyatining shahar va tumanlarida ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha shakllantirilgan istiqbolli loyihalarning manzilli ro'yxatini shakllantirish belgilangan<sup>6</sup>.

Qashqadaryo viloyatida 2022–2026-yillarda yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmini 1,5 baravarga, sanoat mahsulotlari hajmini 1,5 baravarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,2 baravarga, xizmatlar hajmini 2,9 baravarga hamda qurilish ishlari hajmini 1,2 baravarga oshirish bo'yicha barcha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Natijada, jon boshiga to'g'ri keladigan YAHM hajmi 13,9 mln so'mdan 22,1 mln so'mga oshishi kutilmoqda. Tegishli sohalarni rivojlantirish orqali viloyatning budget tushumlari hajmi 3 483 mlrd so'mdan 5 528 mlrd so'mga (1,6 baravar o'sish) yetkaziladi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar natijasida kelgusi besh yilda jami 51 585 ta yangi kichik biznes subyektlari tashkil etiladi. 438,4 ming nafar aholining bandligini ta'minlash orqali viloyatda ishsizlik darajasi 9,2 foizdan 7,6 foizga, kambag'allik darajasi 50 foizga qisqartiriladi.

3872 ta loyihalalar bo'yicha umumiyligi 3579,2 mln dollarlik investitsiya loyihalari ishga tushiriladi va investitsiya loyihalarini yo'lga qo'yish bo'yicha yangidan 72 ta kichik sanoat zonalari tashkil etiladi.

Hududiy ekport hajmi 1,6 baravarga oshirilgan holda, jami 1,6 mlrd dollarlik mahsulot va xizmatlar eksporti yo'lga qo'yiladi.

Kelgusi besh yillikda aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini 43,4 foizdan 68,4 foizga, oqova suv tizimi bilan qamrov darajasini 6,3 foizdan 14,2 foizga oshirish ko'zda tutilgan. Shu bilan bir qatorda elektr tarmog'ini yaxshilash maqsadida umumiyligi 61 99,1 km bo'lgan elektr tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish, 1 673 ta transformatorlarni o'rnatish va ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi.

Viloyatning yo'l infratuzilma salohiyatini yaxshilash maqsadida umumiyligi 814,9 km bo'lgan umumiyligi foydalananishdagi avtomobil yo'llarini asfaltlash hamda 3 554,3 km ichki xo'jalik yo'llarini yaxshilash, 125 ta ko'priklarni qurish va ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda, umumiyligi qiyamti 455,1 mlrd so'mlik 275 ta issiqlik ta'minoti tizimi obyektlarini yangidan qurish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish ko'zda tutilgan.

Kelgusi besh yillik istiqbolda viloyatda maktabgacha ta'lif bilan qamrov darjasini 52,1 foizdan 62 foizga oshiriladi, bu borada xususiy sektor tomonidan 57 346 o'rini 2 029 ta nodavlat va oilaviy maktabgacha ta'lif tashkilotlarini tashkil etish choralar ko'riladi. 744 ta umumta'lif maktablarida qurilish rekonstruksiya ishlari olib boriladi. Jumladan, 24 ta yangi umumta'lif maktablari quriladi, 548 ta umumta'lif maktablarida rekonstruksiya, 172 ta umumta'lif maktablarida mukammal ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi.

Qashqadaryo viloyatida kam ta'minlanganlik holatini kelgusidagi o'zgarish tendensiyalarini aniqlash va aniq maqsadlarga yo'naltirilgan strategiyalarni belgilash uchun prognosh ko'rsatkichlarni hisoblash maqsadga muvofiq. Shunday ekan, prognozlash davomida Qashqadaryo viloyatining 2004–2022-yillar mobaynida kam ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichlari trend ma'lumotlari o'rganildi va statistik vaqtlar qatori uslubi orqali polinomial regressiya usulida prognoz modeli hisoblab chiqildi

Quyidagi prognoz ko'rsatkichlarida  $y = 46.4060561673e - 0.0621583862x$  chiziqli prognozlash tenglamasida tenglama  $y$  va  $x$  o'rtasidagi to'g'ri chiziqli munosabatni ifodalaydi. "46,4060561673" koeffitsiyenti  $x$  nolga teng bo'lganda  $y$  ning qiyamti bo'lgan y kesmasini ifodalaydi. "-0,0621583862" koeffitsiyenti chiziqning qiyaligini ifodalaydi,  $x$  ning har bir birligi o'zgarishi uchun  $y$  qancha o'zgarishi kutilayotganligini ko'rsatadi (jadval 1).

**1-jadval: Qashqadaryo viloyatining 2004–2022-yillar mobaynida kam ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichlari<sup>7</sup>**

Yillar	Amaliy ko'rsatkichlar	Indeks miqdor	Ko'paytiriladigan qiyamat	E funksiya darajasi
2004	41,5	1	46,40605617	-0,062158386
2005	41	2	46,40605617	-0,062158386
2006	39,8	3	46,40605617	-0,062158386
2007	38	4	46,40605617	-0,062158386
2008	34,9	5	46,40605617	-0,062158386
2009	32,5	6	46,40605617	-0,062158386

<sup>6</sup> Qashqadaryo viloyatini rivojlantirishning besh yillik dasturi tasdiqlandi. 22.04.2022. URL: [https://www.norma.uz/qonunchilikda\\_yangi/qashqadare\\_viloyatini\\_rivojlantirishning\\_besh\\_yillik\\_dasturi\\_tasdiqlandi](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/qashqadare_viloyatini_rivojlantirishning_besh_yillik_dasturi_tasdiqlandi)

<sup>7</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2010	28,9	7	46,40605617	-0,062158386
2011	26,8	8	46,40605617	-0,062158386
2012	24,9	9	46,40605617	-0,062158386
2013	24,2	10	46,40605617	-0,062158386
2014	23,5	11	46,40605617	-0,062158386
2015	23,2	12	46,40605617	-0,062158386
2016	22,6	13	46,40605617	-0,062158386
2017	22,4	14	46,40605617	-0,062158386
2018	20,9	15	46,40605617	-0,062158386
2019	12	16	46,40605617	-0,062158386
2020	13,6	17	46,40605617	-0,062158386
2021	17,9	18	46,40605617	-0,062158386
2022	12,7	19	46,40605617	-0,062158386

Qashqadaryo viloyatining 2004–2022-yillar mobaynida kam ta'minlanganlik darajasi e'tibor beradigan bo'lsak eng yuqori ko'rsatkichlar 2004 yil 41,5 foizni, 2006 yil 39,8 foizni, 2007 yil 38 foizni, 2008 yil 34,9 foizni, 2009 yilda esa 32,5 foizni tashkil etganligiga guvoh bo'lamiz. Qashqadaryo viloyatining kam ta'minlanganlik darajasining 2022–2030-yillardagi istiqbol ko'rsatkichlari amaliy ko'rsatkichlariiga taqqoslanganda 2004, 2005 yilga nisbatan 21 foizga, 2006 yilga nisbatan 22 foizga, 2007- yilga nisbatan 23 foizga, 2008-yilga nisbatan 25 foizga, 2009-yilga nisbatan 27 foizga, 2010-yilga nisbatan 30 foizga, 2011-yilga nisbatan 32 foizga, 2012- yilga nisbatan 35 foizga, 2013-yilga nisbatan 36 foizga, 2014-yilga nisbatan 37 foizga, 2015–2016-yilga nisbatan 38 foizga, 2017-yilga nisbatan 39 foizga, 2018-yilga nisbatan 42 foizga, 2019-yilga nisbatan 73 foizga, 2020-yilga nisbatan 64 foizga, 2021-yilga nisbatan 46 foizga pasayganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, viloyatda kambag'allik darajasi 2022-yilda 12,7 foizgacha qisqargan.


Prognozlash davomida Qashqadaryo viloyatining 2004–2022 yillar mobaynida kam ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichlari trend ma'lumotlari o'rganildi va statistik vaqtlar qatori uslubi orqali polinomial regressiya usulida prognoz modeli hisoblab chiqildi. Bu ko'rsatkichlarni 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

**2-jadval:** Qashqadaryo viloyatining kam ta'minlanganlik darajasining 2022–2030-yillardagi istiqbol ko'rsatkichlari<sup>8</sup>

Yillar	Prognoz ko'rsatkichlari	Indeks miqdor	Ko'paytiriladigan qiymat	E funksiya darajasi
2023	13,4	20	46,40605617	-0,062158386
2024	12,6	21	46,40605617	-0,062158386
2025	11,8	22	46,40605617	-0,062158386
2026	11,1	23	46,40605617	-0,062158386
2027	10,4	24	46,40605617	-0,062158386
2028	9,8	25	46,40605617	-0,062158386
2029	9,2	26	46,40605617	-0,062158386
2030	8,7	27	46,40605617	-0,062158386

Ushbu prognozlash natijalariga ko'ra hududda kambag'allik darajasi pasayish tendensiyasiga ega va 2030-yilga qadar 8,7 foizgacha qisqarishi kutilmoqda (1-rasm).

<sup>8</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



1-rasm: Qashqadaryo viloyatining kam ta'minlanganlik darajasining 2004–2022-yillardagi amaliy hamda 2030-yil istiqbol ko'rsatkichlari<sup>9</sup>

$y = 46,4060561673e^{-0,0621583862x}$  chiziqli prognozlash tenglamasining modeli  $R^2 = 0,9394243834$ ,  $p \leq 0,01$  ga teng. Ushbu modelga ko'ra, prognoz natijasining aniqlik darajasi 94 foizga teng ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotimiz natijalariga asosan Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy salohiyatiga va hududdagi kambag'allik darajasiga ta'sir etuvchi omillar sifatida moliyaviy resurslarning taqchilligi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, inson kapitali pastligi hamda hududiy institutlarining past darajadagi sifatini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Mazkur muammolarni hal etishda hududda oziq-ovqat dasturlari, uy-kommunal xo'jaligi va yangi uy-joylar qurish mexanizmi takomillashtir, axborot texnologiyalari, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarini rag'batlantish hududdagi kambag'allikni qisqartirishdagi ustuvor sohalar hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, hududiy kambag'allik darajasiga iqlim o'zgarishi, antropogen ta'sirlar, narxlarni ko'tarilishi, inflyatsiya darjasasi, tashqi qarzlar va budjet defitsiti ortib borayotgan bugungi davrda kambag'al va qoloq aholi sonining ortib borishi mamlakatni makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shu sabab hukumat darajasida har bir fuqaroga ayniqa, moddiy yordamga juda muhtojlarga, albatta, maksimal darajada ko'mak berish ustuvor vazifalardan bo'lib qolmoqda. Shu bilan bir qatorda, ularni ish bilan ta'minlash yoki tadbirkorlik o'rgatish kabi tashabbuslar shular jumlasidandir. Biroq iqtisodiyot mutadil bo'lmasa, ish haqi ham, aholi turmush darajasi ham pasayib boraveradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan Qashqadaryo viloyatida aniqlangan muammo va kamchiliklar hamda kambag'allikka sabab bo'livchi omillarni chuqur tahlil qilgan holda mintaqada kambag'allikni qisqartirishning bir nechta yo'llarini taklif etish mumkin:

*Birinchidan*, mintaqaga aholisini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish hududiy kambag'allikni qisqartirishning muhim dastaklaridan biri bo'lib, mehnatga layoqatli yoshlar hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning manzilli ro'yxatlarini shakllantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun band qilingan kvota ish o'rinaligiga ishga joylashtirish, yangi yaratilgan mavsumiy ish joylariga ishsiz fuqarolarni jalb qilish va o'zini o'zi band qilish, yagona milliy mehnat bazasidagi mavjud bo'sh (vakant) ish o'rinaligiga band bo'lmanган fuqarolarni ishga joylashtirish zarur.

9 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



*Ikkinchidan*, qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish hududdagi kambag'allik darajasini qisqartirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni qishloq xo'jaligida eksportbop mahsulotlarning ulushini oshirish maqsadida dehqon xo'jaliklari, bog' qator oralari, aholi tomorqlari va asosiy maydonlarga bir mahalla bir mahsulot tamoyili asosida ekinlarni joylashtirish, mahsulot ishlab chiqaruvchilarga sifatli urug' va moddiy texnik baza bilan ta'minlash hamda yetish-tirilgan mahsulotni xarid qilish tizimini yo'lga qo'yish, mahsulot yetishtiruvchilar bilan eksportyorlar o'tasida shartnomalar tuzishga ko'maklashish darkor.

*Uchinchidan*, hududiy kambag'allikni qisqartirishning yana bir muhim usullaridan biri bu hududdagi ishsizlik darajasini kamaytirish va yangi ish o'rinalarini yaratishdan iborat bo'lib, bu borada hududda amalda mavjud bo'limgan faoliyat sohalarini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xususan, Qashqadaryo viloyatida keksalar uchun vaqtinchalik g'amxo'rlik qiluvchi va ularni parvarish qiluvchi muassalar faoliyatini yo'lga qo'yish hududagi keksalar kambag'alligiga qarshi kurashishning muhim jihatlaridan biri bo'ladi.

#### Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiysi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022-yildagi "2022–2026-yillarda kompleks Qashqadaryo viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 201-soni qarori.
3. Glaeser, E. L. (2000). Reforming Poverty Alleviation: Lessons from Sages and Statecraft. Brookings Papers on Economic Activity, 2000(2), 217-274.
4. Johnson, D. G. (1987). Regional Problems and Policies in Latin America. World Bank Publications. 3. Bird, R. M. (1999). Fiscal decentralization and regional poverty. International Studies Program, Working Paper Series, Paper 99-07.
5. Ravallion, M. (2001). Poverty Comparisons: A Guide to Concepts and Methods. Living Standards Measurement Study Working Paper No. 88. The World Bank.
6. Montgomery, D.C., Jennings, C.L., & Kulahci, M. (2015). Introduction to Time Series Analysis and Forecasting. Wiley. Pages 198-206
7. "Qashqadaryo viloyatining rivoji tahlil qilinib, kelgusi yilgi vazifalar belgilandi". URL: <https://gov.uz/uz/news/view/35604>
8. Qashqadaryo viloyatini rivojlantirishning besh yillik dasturi tasdiqlandi. 22.04.2022. URL: [https://www.norma.uz/qonunchilikda\\_yangi/qashqadare\\_viloyatini\\_rivojlantirishning\\_besh\\_yillik\\_dasturi\\_tasdiqlandi](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/qashqadare_viloyatini_rivojlantirishning_besh_yillik_dasturi_tasdiqlandi)
9. Elektron resurslar:
10. <https://norma.uz>
11. <https://lex.uz/ru>
12. <https://stat.uz>

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.